

TA’LIMNI MODERNIZASIYA QILISHDA INTELLEKTUAL IMKONIYATLARNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Sattarova Iroda Muradaliyevna
ADU, Umumiy pedagogika kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchining o‘ziga xosligini pedagogik qo‘llab-quvvatlash choralari rivojlantirish muammosining yechimlarini izlash bugungi kundagi dolzarb muammo ekanligi. Har bir yosh davrida o‘ziga xos o‘quv yuklamasini taqdim qiladigan o‘quv-metodik majmualar zarurligi, bu esa o‘quv jarayoni muvaffaqiyatli kechishining muhim shartlaridan biri ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual imkoniyat, ta’lim, bilim darajasi, ta’lim mazmunini yangilash, ehtiyoj, o‘quv-biluv jarayoni, ta’limning variativligi, qobiliyat va iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish

Аннотация: В данной статье рассматривается поиск решения проблемы развития педагогического сопровождения индивидуальности обучающегося, которая в процессе обучения является актуальной проблемой на сегодняшний день. Считается, что необходимы учебно-методические комплексы, обеспечивающие уникальную образовательную программу в каждом учебном процессе и это является одним из важных условий успешного завершения образовательного процесса.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, образование, уровень знаний, обновление содержания образования, потребность, образовательный процесс, многообразие образования, выявление развития способностей и талантов.

Abstract: In this article, the search for a solution to the problem of developing pedagogical support for the student’s individuality in the learning process is a pressing problem today. It is believed that educational and methodological complexes are needed that provide a unique educational program in each educational period and this is one of the important conditions for the successful completion of the educational process.

Key words: intellectual abilities, education, level of knowledge, updating the content of education, need, educational process, diversity of education, development of abilities and talents.

O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish o‘ta muhim masalalardan biridir. Bunda bilish jarayonining o‘zi o‘quvchini kuzatish, uning faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilmog‘i zarur.

Shaxsning o‘ziga xos yaxlitligini tarkib toptirishda o‘quv-biluv jarayoni muhim omildir. Bu jarayon ilmiy-metodik hamda moddiy-texnik jihatdan to‘la ta’minlangandagina samarali natijalar beradi. O‘quvchida bilish ehtiyojining paydo bo‘lish motivlari ham mana shu shart-sharoit natijasida vujudga keladi. Bularning barchasi o‘quvchi shaxsi rivojlanishining psixologik, pedagogik, didaktik yo‘nalishlarini belgilaydi.

O‘quv-biluv jarayonida o‘quvchining o‘ziga xosligini pedagogik qo‘llab-quvvatlash choralari rivojlantirish muammosining yechimlarini izlash bugungi kunda o‘ta muhimdir.

“...O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida” keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.[1.]

O‘quvchi shaxsini axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning jismoniy hamda ruhiy salomatligini muhofaza qilish hamda mustahkamlash har bir bolaning o‘ziga xosligini saqlab qolish, rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash uning taraqqiyot darajasiga muayyan talablar qo‘yish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda unga rioya qilish muhimdir. Barcha o‘quv fanlaridan ta’lim mazmunini gumanitarlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan talablarni belgilab olishni taqozo qiladi.

Ta’limning variativligi hamda o‘quvchi shaxsiga umuminsoniy madaniyatni singdirishga yo‘naltirilishiga erishish ham didaktikada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muhim masalalardan biridir. Muayyan o‘quv predmet vositasida dunyoning yaxlit tarzidagi manzarasini ifodalash talabiga ham ta’lim mazmunini belgilashda, darsliklar yaratishda rioya qilish talab etiladi. Asosiy g‘oyalar va didaktik tamoyillar insonparvarlikka intilish pedagogik-psixologik ma’lumotlarga asoslangan holda barcha o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida bilim olish layoqatiga ega ekanliklarining qay darajadiligini aniqlash lozim. Shundagina ular uchun yetarli pedagogik, didaktik, moddiy- texnik, shart sharoitlarni maqsadga muvofiq, tarzda yaratish mumkin. Bu esa ularning bilim darajasining yuqori bo‘lishining asosiy omilidir. Har bir sinf uchun yaratiladigan darsliklarda o‘quvchi shaxsining rivojlanishi bilan bogliq bo‘lgan o‘zgarishlar aniq hisobga olinishi kerak.

Bizda bugun maktabga kelgan 6 hamda 7 yoshli o‘quvchilarning barchasi yoppasiga birinchi sinflar uchun yozilgan darsliklardan foydalanishmoqda. Bu didaktik hamda psixologik jihatdan noto‘g‘ri yondashuvdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 6 yoshli o‘quvchi bilan 7 yoshli o‘quvchining imkoniyatlari birday teng emasligini pedagogika fani allakachon isbotlab bergan.

Har bir yosh davrida o‘ziga xos o‘quv yuklamasini taqdim qiladigan o‘quv-metodik majmualar zarurligini davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Bu o‘quv jarayoni muvaffaqiyatli kechishining muhim shartlaridan biri hamdir. Chunki bolaning yoshi, uning tajribasini tavsiflovchi bosh omildir. Buni o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini yaratishga kirishganda har bir mutaxassis anglab yetishi lozim. O‘quvchining ijtimoiy tajribasini hisobga olish deganda, faqat turli-tuman manbalar, kompyuterlar, istirohat bog‘lari, madaniyat o‘choqlariga qilinadigan sayru sayoxat va boshqalar vositasida har daqiqada boyib borayotgan shahardagi o‘quvchining ijtimoiy tajribasini emas, balki shahar hayotidan kino, teatr, istiroxat bog‘laridan uzoqda kompyuter kirib bormagan qishloq va ovul bolalarining ijtimoiy tajribasini boyitishni ham nazarda tutgan holda darsliklarni yaratishga erishishlari lozim. Bunday o‘quvchilar uchun darslik ularni rivojlantiruvchi asosiy manba bo‘lishi kerak. Bundan tashqari olis qishloq va ovullarda yashayotgan o‘quvchilar aniq xis etishlari kerakki darslikda ularni o‘rab turgan muhit tan hisobga olingan. Darslik aynan ularga yo‘naltirilganligi sababli o‘quv fanlari bo‘yicha yaratiladigan darsliklarning avlodi yana rivojlangan shahar hayoti bilan tabiiy tarzidagi olis qishloq va ovullar hayoti uyg‘un tarzda ifodalanishi talab etiladi. Ushbu maskanlarning har ikkalasi shahar va qishloqlarda yashayotgan o‘quvchi shaxsining ijtimoiy tajribasi, darslik

va o‘quv-metodik manbalarda teng hisobga olinishi lozim. Shunga ko‘ra har bir darslikda xududiy materiallarga alohida o‘rin ajratish talab etiladi.

Har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni pedagogik qo‘llab-quvvatlash, qobiliyat va iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish, muayyan sharoitga moslashuvchanligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv faoliyatida o‘quvchining optimal rivojlanishini ta‘minlash muhimdir. Yangi sharoitda optimal rivojlantirilganda, biz o‘quvchining o‘ziga xosligini pedagogik jihatdan, uning rivojlanishi boshqa, yangicha bir o‘quv modeli ta‘sir qilishini ko‘zda tutamiz. Agar o‘qituvchiga ta‘lim berish va rivojlantirish muammosi uyg‘unlashtirilsa, uning o‘ziga xosligini pedagogik qo‘llab - quvvatlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

“...bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko‘paytirishda hurmatli ziyolilarimiz - ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san‘at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz...” [2.13-bet]

Didaktik va psixologik talablarni hisobga olgan holda muayyan o‘quv predmet doirasida maxsus tashkil etilgan individual hamda alohida guruhlarda, jamoa bo‘lib olib boriladigan ishlar orqali hamda turlicha murakkablik darajasida bo‘lgan topshiriqlarning har tomonlama o‘ylab ishlab chiqilgan tizimi, har mavzuning o‘zlashtirilishi muayyan pedagogik shart- sharoitlarni talab qiladiki, bunday sharoitda ta‘lim rivojlanishga nisbatan ilgari lab boradi. O‘quvchi, odatda mustaqil bajariladigan topshirig‘ini kichik guruhda o‘zaro yordam, hamfikrlik natijasida tez bajaradi. Kichik guruh uchun murakkablik qiladigan mashq va masalalarni o‘quvchilar jamoa bo‘lib oson va sifatli bajarishlari mumkin. Savol va topshiriqlarning differentsiallik darajasidan kelib chiqqan holda hamda bir mavzu bo‘yicha belgilab beriladigan topshiriqlar, udarning sifati, har bir o‘quvchining namoyon qilishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi o‘z rivojlanishi va bilim sifatining darajasi va individual harakatlarini ham belgilab oladi.

O‘quvchi shaxsining o‘ziga xos taraqqiyot jarayoni quyidagilarda namoyon bo‘ladi o‘z bilimlarini oshirishda, u yoki bu o‘quv predmetini o‘zlashtirishga moyillik tarzida ijodiy tafakkur, aqliy qobiliyatning taraqqiyoti predmetiga nisbatan bilimdonlik, aqliy qobiliyat ijodiy tafakkurning rivojlanishi, xissiyotni tarbiyalash, jamoa hayoti va o‘quv-tarbiya jarayoniga ijtimoiy psixologik jihatdan moslashish, o‘z zimmasiga javobgarlikni olish mustaqil qarorlar qabul qilish va unga mos harakatlarni bajarish, jamoa orasida odatlanish, tengdoshlari kabi kattalarga ham murojaat qila olish, hamda dadil tanqid qila olish, boshqalarga yordam ko‘rsatish, shaxsiy fikrini asoslash va isbotlash, jismoniy madaniyat elementlarini namoyon qila olish, sog‘lom turmush tarzining qimmatli ahamiyatini anglab yetish, alkogol va narkotiklar zararini tushunib yetish, estetik didga ega bo‘lish, atrof-olamning go‘zalligini xis etish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini ma‘nosini bila olish, tahlil qilish, farqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, boshqalarning fikrlarini xurmatlash, jamiyat a‘zolar bilan muloqot qilish madaniyatiga ega bo‘lish. Bu ko‘nikmalarning qimmatli va zarurligini anglash o‘quvchilarning ongida dunyoning ilmiy manzarasini yaxlit tarzda gavdalantirish, bu manzarani uning uchun qulay bo‘lgan materiallar orqali yetkazish lozimligini tasdiqlaydi. Bu materiallar turli ta‘lim sohalarining mazmuni orqali yetkaziladi. Chunonchi, ona tili, adabiyot, matematika,

istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari, tabiat, jamiyatshunoslik va xokazo. Har bir o‘quv predmetining mazmunida dunyoning ilmiy manzarasi o‘ziga xos integratsiyalashgan tarzda ifodalanishi lozim. Bugungi kunda ta’lim mazmunini tanlashda har bir o‘quvchining o‘ziga xosligiga tayangan holda uning o‘ziga xosligini ta’minlashdan iborat. Bunda o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyat va qobiliyat darajasi alohida hisobga olinishi kerak. Bir bolani uzluksiz rivojlantirish tamoyili o‘quv materiallarini integratsiyalash, integrallashgan o‘quv materilini qamrab olgan darsliklar yaratishni taqozo qiladi. Taqdim etiladigan bilimlarni mustahkamligi o‘quvchining umumiy rivojlanishi dastlab sensor etalonlarga asoslanadi. Shuning uchun o‘quv materiallari tarkibida turli ranglar, ramzlar, ularning ma’nosi, hajmi birdan tanishtiriladi. Buning natijasida o‘quvchida kuzatuvchanlik faoliyati tarkib topadi. Chunki kuzatuvchanlik o‘quv faoliyatining asosiy yo‘nalishini tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida fikrlash faoliyatini rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash natijasida esa o‘quvchi qiyoslash, qarama-qarshi qo‘ya olishi, guruhlash ko‘nikma va malakalarini egallab boradi. Bu o‘z navbatida, lingvistik, kommunikativ matematik qisoblash, muloqot ko‘nikmalarini egallash uchun muhimdir.

O‘quvchining umumiy rivojlanishi darajasi xissiyotlar, axloq, ong, qobiliyat, xamdarlik, xis eta olish, kommunikativlik ko‘nikmalarining shakllanishi, ijod qilishga intilish kabilarni tarkib toptirishga asos bo‘ladi. Bir vatanini o‘zida estetik taraqqiyotni ham ta’minlaydi. Go‘zallikni xis etish qobiliyatini shakllantiradi. Badiiy asarlarda o‘zini o‘rab turgan moddiy borliqning aks etayotganligini anglash, nafasat xissi va yumorga moyillikni tarkib toptiradi, jismining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi va takomillashtirib borishga anglashni vujudga keltiradi. O‘quv materiallari o‘quvchini har tomonlama rivojlantirishni ta’minlashga yo‘naltirilmog‘i lozim. Integrallashgan o‘quv kurslari o‘quvchilarda dunyoning yaxlitligi haqida bir butun tasavvur hosil qilishga ko‘maklashadi.

Davlat va jamiyat hayotini yangilash, rivojlantirish, uning ta’lim tizimini modernizatsiyalash, bu tizimni mazmun va tuzilish jihatdan yangilash orqali amalga oshiriladi. Jamiyat a‘zolarining jadal ko‘payib boruvchi sarmoyasiga aylanadigan vositalardan biri yangi iqtisodiyotning taraqqiyotidir. Shuning uchun ta’lim mazmunini yangilashda mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlarini ham alohida hisobga olish kerak. Rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlari yangi sifatdagi, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar talablariga mos keladigan ta’lim mazmunini tatbiq etishni taqozo qilmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim mazmunini belgilashda o‘qitish texnologiyasi va o‘quvchi tomonidan bajariladigan ta’limiy topshiriqlarni aniq rejalashtirish talab etiladi. Turli yo‘nalishdagi amaliy topshiriqlar hamda interfaol ish turlarini kengaytirishga imkon yaratish zaruriyati vujudga kelmoqda. Taqdim etiladigan o‘quv materiallari o‘zbek halqining turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti, ma’naviy-madaniy hayoti, mashg‘ulotlari, yashash xududi bilan chambarchas bog‘langan, ularni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalanitira oladigan, shu bilan bir qatorda o‘quvchining ijtimoiy tajribasiga kiradigan bo‘lishi lozim.

Ta’lim mazmuni yangi modelining tarkibiy qismlarini aniqlashda o‘quv materiallarini integratsiyalash yo‘lidan borish lozim. Bunda integral tarzda ifodalangan tushunchalar hisobiga u yoki bu o‘quv fani bo‘yicha taqdim etiladigan o‘quv yuklamasining miqdorini asosli ravishda cheklash mumkin.

Ta’lim bugungi kunda o‘quvchining ham individual, ham umumiy taraqqiyotini ta’minlovchi jarayon sifatida namoyon bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun ham mazkur

jarayon turli yoshdagi o‘quvchilarning aqliy rivojlanish dinamikasini, o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchi shaxsining faoliyati, ta’lim olishi va rivojlanishining o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga yordam bermog‘i lozim. Bu holat rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyasida o‘z aksini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 Y.PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

2. Mirziyoyev.Sh. M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.T.”O‘zbekiston” NMIU. 2016 y. 13- bet]

3.Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etishning tashkiliy asoslari. // j. Xalq ta’limi. – T., 1999. - №6. – B.4-9.

4.Po‘latov A. Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik innovatsiya. // j.Uzluksiz ta’lim. – T., 2003. – № 2. – B.21-24.

5.Egamberdieva N. M. Ta’lim xizmati marketingida axborotni boshqarish. // j. Ta’lim menejmenti. – T., 2007. - №1. – B. 47-51.